



UO'K: 581.4:615.322(575.1)

FARG'ONA VILOYATI SHAROITIDA DORIVOR CASSIA ANGUSTIFOLIA L O'SIMLIGINING INTRODUKSIYASI VA ISTIQBOLLARI**АККЛИМАТИЗАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ CASSIA ANGUSTIFOLIA L В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО ПЕРСПЕКТИВЫ****ACCLIMATIZATION OF THE MEDICINAL PLANT CASSIA ANGUSTIFOLIA L IN THE CONDITIONS OF THE FERGANA REGION AND ITS PROSPECTS.****Mamajonova Maxliyo Musinjon qizi¹**¹Farg'ona davlat universiteti magistranti**Mahmudov Valijon²**²Farg'ona davlat universiteti biologiya fanlari nomzodi, dotsent**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati sharoitida dorivor Sano- Cassia turlarini iqlimlashtirishga oid dastlabki natijalar ko'rsatilgan. Ushbu o'simlik turi Cassia angustifolia dorivorlik xususiyati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirda viloyat hududlarida keng miqyosdagi plantatsiyalari tashkil qilinmoqda.

Аннотация

В данной статье представлены предварительные результаты по акклиматизации лекарственного вида Sano - Cassia L в условиях Ферганской области. Этот вид растений имеет особое значение из-за целебных свойств кассии узколистной, и в настоящее время в регионах провинции создаются крупномасштабные плантации.

Abstract

This article shows preliminary results on the acclimatization of medicinal Sano – Cassia L species in the conditions of the Fergana region. This plant species is of particular importance with the medicinal character of Cassia angustifolia L and large plantations are now being established in the regions of the Fergana region.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, Sano o'simligi, introduksiya, dorivorlik xususiyati**Ключевые слова:** Ферганская область, Кассия растение, акклиматизация, лекарственное свойство**Key words:** Fergana region, Sano plant, acclimatization, medicinal property**KIRISH**

Hozirgi zamon tibbiyotining rivojlanishi ko'plab kasalliklarni aniqlash va ularni davolash imkonini bermogda. Shu bilan birga esa farmasevtika sanoati ham jadallik bilan taraqqiy etib, dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyojni yanada ortishiga sabab bo'lmoqda. Natijada esa mahalliy floramizda o'sadigan dorivor o'simliklar bilan bir qatorda chetdan olib kelingan o'simliklarga bo'lgan talab ortib boryapti. Shunday o'simlik turlaridan biri – *Cassia angustifolia* bo'lib, dastlab respublikamizning janubiy hududlariga 1960-yillarda iqlimlashtirilgan [1] va keyinchalik esa vodiy hududlariga olib kelingan. Mazkur tur hozirda Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida mahalliyashtirilgan bo'lib, o'simlik xom-ashyosidan tayyorlangan dorivor preparatlar aholi salomatligini saqlashda xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Cassia angustifolia- Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub ko'p yillik butasimon o'simlik bo'lib, hududimizda bir yillik o'simlik sifatida o'sadi. Ushbu tur *Cassia L* turkumiga mansub bo'lib, mazkur turkumga 12 tur o'simlik turlari kiradi[2]. O'simlik yovvoyi holatda Sudan, Afrikaning Qizil dengiz bo'ylarida, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Yaponiya kabi mamlakatlarda uchraydi va shu hududlarda mahalliyashtirilgan. O'simlik turlari qurg'oqchilikka, sho'rlanishga chidamli bo'lib, tuproq unumdorligi yuqori bo'lmagan hududlarda ham yaxshi rivojlanadi, shuni inobatga olib dastlab yurtimizning janubiy hududida Surxandaryo viloyatida ekib o'stirilgan. Sano o'simligi

istiqbolli tur bo'lib, uni ekib ostirish, introduksiya qilish masalalari bilan shug'ullanishni oldimizga maqsad qilib oldik. Biz Sanoni Farg'ona viloyatining Uchko'prik, Oltiariq tumanlarida ekdik va rivojlanishini kuzatib bordik. Kuzatishlarimiz 2020-2023-yillar davomida olib borildi va o'simlikning mavsumiy rivojlanish maromini o'rganishda I.V.Borisova [3], I.N.Beydemen [4] usullaridan foydalanildi. Ekologik omillarni o'simlik turiga ta'sirini aniqlashda I.V.Belolipov [5] tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sano o'simligini ekishni 2020-yili Oltiariq tumanida boshladik. Dastlab o'simlik urug'larini ekish uchun maxsus polietilen idishlariga biogumusli aralashmani soldik so'ngra o'simlik urug'larini aprel oyida ekib chiqdik. Urug'lar 25-30C haroratda una boshladi va 5-6 kunda urug'palla barg chiqardi. Tayyor bo'lgan ko'chatlarni yerga to'g'ridan-to'g'ri may oyida o'tkaza boshladik. Sano o'simligining pishgan urug'larini avgust, sentyabr oylarida yig'ib oldik. O'simlikning gullash mavsumi iyul oyidan noyabr oyigacha davom etganligi bois, bir necha marotaba pishgan urug'larini terib oldik. Yaxshi sifatli urug'larni kelgusi yil uchun ekishga ajratib oldik. Bunda ekish uchun yaxshi pishib yetilgan sifatli to'q urug'lar tanlanadi. Odatda 1000 dona urug' vazni 15-25 gr, ularning unib chiqish energiyasi esa 80-95% ni tashkil qiladi. 2022-yil may oyida olingan urug'larni yerga eka boshladik. Dastlab, o'simlik urug'lari biroz qattiq bo'lganligi bois qum bilan stratifiksiya qildik, keyin urug'larini 24 soat davomida oddiy iliq suvga ivitib qo'ydik. Urug'larni oldindan sug'orilgan yerga qo'l bilan 2-3 sm li chuqurlikda 60x70 sxemada ekdik. Nihollar 6-7-may kunlarida una boshladi va 5-6-kunda yoppasiga 80-95% unuvchanlikni ko'rsatdi. Sano o'simligi ekilganidan 2 hafta o'tib dastlabki chin barglari hosil bo'la boshladi va 25-mayga kelib maysaning bo'yi 9sm ni tashkil qildi. 4-5-iyun kunda yer ustki qismi 35sm ni tashkil qildi, dastlabki chin barglarining uzunligi esa 3sm dan 5sm gacha, eni 1,5 sm uzunlikni tashkil qildi. Barglarining rangi to'q yashil bo'lib, novdada qarama-qarshi joylashgan. O'simlikda 16-iyun kundan boshlab gul kurtaklari ko'rina boshladi va 24-uyunda dastlabki gullari ochildi. Urug'idan ekilgan kundan boshlab 45 kunda gulladi. Sano o'simligining bo'yi 1,90 sm gacha yetadi va yil davomida 7-8 ming donagacha urug' beradi.

XULOSA

Sano o'simligi issiqsevar, yorug'sevar o'simlik bo'lib, tuproq unumdorligigi va namlikka nisbatan talabchan emas. Ammo mahalliy va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilsa yaxshi natija beradi. Yuqorida qayd etilgan kuzatish va natijalarga asoslanib, o'simlikning gullash biologiyasi va urug' mahsuldorligini o'rganishni davom ettirish zarur. Bundan tashqari, o'simlik baland bo'lib o'sganligi bois kuchli shamollardan ixotalangan maydonlarga ekish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Murdaxayev Y.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Avtoreferat.-Toshkent: 1992, -42 b
2. Борисова, И.В. (1972). Сезонная динамика растительного сообщества [Сезонал динамисс оф тхе плант соммуниетй]. Полевая геоботаника. Ленинград: Наука.
3. Бейдеман, И.Н. (1974). Методика изучения фенологии растений и растителнйх сообществ [Метходологй фор студийнг тхе пхенологй оф плантс анд плант соммуниетис]. Новосибирск: Наука.
4. Белолипов И.В., (1989) Интрукция травянистйх растений природной флорй Средней Азии (Экологоинтродукционний анализ). ФАН. 152.
5. Belolipov I.V., Tukhtaev B.Yo., Qarshiboev H. Q., (2015). "Usimliklar introduksiyasi" fanidan ilmiy – tadqiqot ishlari utkazishga oid metodik kursatmalar, 2nd edition, Gulistan, 32 b.